



Adabiyotshunoslikda Modernizm Va Uning Spetsifik Belgilari

Sadullaev Feruz Bakhtiyorovich PhD, Docent,

Bukhara state university, Bukhara

Sattorova Orzigul Jakhon kizi Master's degree student,

Bukhara state university, Bukhara

E-mail: o.j.sattorova@buxdu.uz

Annotatsiya. Adabiyotshunoslikda modernizm - XX asr boshlarida paydo bo'lgan va an'anaviy adabiy shakl va uslublarga qarshi chiqqan ijodiy yo'nalishdir. Modernizm o'ziga xos belgilari ega bo'lib, ularda ichki monolog, oqim uslubi (stream of consciousness), sub'ektiv tajriba va yangi estetik shakllarni izlash muhim o'rinn tutadi. Ushbu maqola, modernizmnning adabiyotdag'i umumiy tamoyillari va uning asosiy xususiyatlarini, jumladan, fragmentar syujet, kompozitsion yangiliklar va til tajribalari kabi elementlarni tahlil qiladi. Maqolada shuningdek, Thomas Wolfe ning "You Can't Go Home Again" asari modernizmnning aks ettirilgan jihatlari bilan ko'rsatilgan. Asar, inson ruhiyatining murakkabligi, o'zgaruvchan identitet va jamiyatga qarshi kurashning ifodasi sifatida, modernizmnning adabiyotdag'i o'rni va ahamiyatini yanada chuqurlashtiradi.

Kalit so'zlar: Modernizm, Adabiyot, Ichki monolog, Oqim uslubi, Sub'ektiv tajriba, Syujet, Kompozitsiya, Til tajribalari, Fragmentarizm


Аннотация Модернизм в литературоведении — это литературное направление, возникшее в начале XX века и противопоставившееся традиционным литературным формам и стилям. Модернизм обладает характерными особенностями, такими как внутренний монолог, стиль потока сознания, субъективный опыт и поиск новых эстетических форм. В данной статье рассматриваются основные принципы модернизма в литературе, включая фрагментарный сюжет, новаторские композиционные решения и экспериментирование с языком. В статье также анализируется произведение Томаса Вульфа «You Can't Go Home Again», которое иллюстрирует проявление модернизма в литературе. Произведение служит примером сложной природы человеческой психики, меняющейся идентичности и борьбы с обществом, углубляя понимание роли и значения модернизма в литературе.

Ключевые слова: Модернизм, Литература, Внутренний монолог, Поток сознания, Субъективный опыт, Сюжет, Композиция, Языковые эксперименты, Фрагментаризм, Томас Вульф

Abstract In literary studies, modernism emerged in the early 20th century as a creative movement that challenged traditional literary forms and styles. It is characterized by specific features such as the internal monologue, stream of consciousness, subjective experience, and the search for new aesthetic expressions. This article explores the general principles of modernism in literature, including fragmented plots, innovative compositional techniques, and linguistic experimentation. Additionally, Thomas Wolfe's You Can't Go Home Again is analyzed as a literary work that reflects modernist traits. The novel exemplifies the complexities of human psychology, shifting identity, and societal rebellion, thus deepening the understanding of modernism's place and significance in literature.

Keywords: Modernism, Literature, Internal monologue, Stream of consciousness, Subjective experience, Plot, Composition, Linguistic experimentation, Fragmentation

Modernizm XX asr boshlarida shakllangan adabiy harakat bo'lib, u klassik va realizmga



asoslangan an'anaviy adabiy shakllarga qarshi chiqqan. Bu harakatning markazida inson ongi, ichki kechinmalari va sub'ektiv haqiqat tasviriga e'tibor qaratilgan. Peter Childs (2000) modernizmni "an'anaviy vaqt, makon va tafakkur doiralarini buzgan, yangilik va eksperimentga asoslangan estetik qarashlar to'plami" deb ta'riflaydi[1]. Modernist yozuvchilar tashqi reallikdan ko'ra inson ongingin murakkab va paradoksal kechinmalarini tasvirlashga intildilar. Masalan, Joyce va Woolf o'z asarlarida oqim uslubi orqali qahramonlarning ongida kechayotgan tasodifiy fikrlar oqimini bevosita o'quvchiga yetkazishga harakat qilganlar[2]. Mark Bradbury va James McFarlane (1991) esa modernizmni "yo'qotilgan markaz" fenomeni bilan izohlaydi: ya'ni zamonaviy inson o'z dunyosida o'zini begona his qilishi, tarixiy, diniy va ijtimoiy tayanchlardan ajralgan holatda yashashi bilan tavsiflanadi[3]. Shu bois, modernist asarlarda ko'pincha begonalik, izolyatsiya, ma'nosizlik, vaqt va makonning o'zgaruvchanligi asosiy mavzularga aylangan. Modernist adabiyotda tilning o'zi ham estetik tajriba vositasi sifatida qaraladi. Waugh (1984) ta'kidlaganidek, bu davr adabiyotida "metafiktsiya" — ya'ni matn o'zining badiyiligidan xabardor bo'lib, o'ziga nisbatan tanqidiy qaraydi — keng qo'llaniladi. Modernizm nafaqat shakl, balki mazmun jihatdan ham murakkab va ko'p qatlamlı bo'lib, u o'quvchini faol o'yashga va talqin qilishga chorlaydi. Bu uslub Thomas Wolfe kabi yozuvchilarning asarlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Thomas Wolfe ning You Can't Go Home Again asari modernizmning barcha muhim xususiyatlarini o'zida mujassam etgan asarlardan biridir. Bu asarda bosh qahramonning o'zgaruvchan identiteti, ichki kurashlari va jamiyatga qarshi kurashini tasvirlaydi. Asarda, "uyga qaytish" mumkin emasligi g'oyasi, o'tgan davrga qaytishning imkonsizligi tasvirlanadi[4]. Bu g'oya modernizmning asosiy printsiplariga mos keladi, chunki asarda vaqt va makonning o'zgaruvchanligi, shuningdek, shaxsiy xotiralar va o'tmish bilan bog'liq kurashlar tasvirlanadi.

Asarda Georg Grimesning o'zgarishi va ruhiy izlanishlari, jamiyatdagi o'zgarishlarga qarshi kurashi orqali modernizmning asosiy g'oyalari — insonning ichki dunyosiga chuqur kirish, tashqi dunyo bilan o'zaro aloqada bo'lish va o'zini anglash kabi mavzularni o'zida aks ettiradi. Shunday qilib, asar modernizmning markazi g'oyalarni o'zida mujassam etadi va uning adabiyotdagi o'rni va ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Modernizmning o'zi shakl va mazmunni o'zgartirish, adabiyotda yangi ifoda vositalarini izlash va inson tajribasini yangi shakllarda taqdim etishdir. Shuning uchun modernizm, asarlarning kompozitsiyasida, tilida va mavzusida o'ziga xos yangiliklar yaratgan, o'quvchi va tomoshabinlarga yangi adabiy tajriba taqdim etgan. Thomas Wolfe ning You Can't Go Home Again asari esa bu jarayonning aniq namunasidir, chunki u modernizmning asosiy printsiplariga to'liq mos keladi, zamon va makon o'zgarishiga qarshi kurashni va insonning ichki dunyosini tasvirlaydi[5].

Xulosa Modernizm XX asrning boshlarida yuzaga kelgan va adabiyotda an'anaviy shakl va uslublarga qarshi chiqqan ijodiy yo'nalishdir. Ushbu yo'nalish insonning ichki dunyosini, sub'ektiv tajribalari va ruhiy holatlarini tasvirlashga qaratilgan. Modernizmda ichki monolog va oqim uslubi (stream of consciousness) kabi uslublar orqali qahramonlarning fikrlari va hissiyotlari bevosita o'quvchiga yetkaziladi[6]. Bu esa haqiqatni sub'ektiv va ko'p qirralik tarzda aks ettiradi. Modernizm o'zining til va shakl eksperimentlari, fragmentar syujetlar va sub'ektiv haqiqat orqali adabiyotda yangilik yaratdi. Thomas Wolfening You Can't Go Home Again asari, modernizmning barcha xususiyatlarini o'zida mujassam etgan asarlardan biridir. Bu asar, zamon va makon o'zgarishi, shaxsiy o'zgarishlar va jamiyat bilan bog'liq kurashlarni tasvirlaydi. Shunday qilib, modernizm adabiyotda yangi shakl va mazmun yaratish, inson tajribasini chuqurroq aks ettirishga intilgan ijodiy yo'nalishdir va adabiyotning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan .



Foydalaniłgan Adabiyotlar

1. Childs, P. (2000). Modernism. Routledge. page 2
2. Levenson, M. (2011). Modernism. Yale University Press.page 45
3. Bradbury, M., & McFarlane, J. (Eds.). (1991). Modernism: A Guide to European Literature 1890–1930. Penguin Books. Page 25
4. Wolfe, T. (2000). You can't go home again. Henry Holt and Company.
5. Wolfe, T. (2000). You can't go home again. Henry Holt and Company.
6. Joyce, J. (1992). Ulysses. Vintage Classics.
7. Sadullaev F. B., Hodiyeva O. H. Description of woman image in the novel "Shirley" by Charlotte Bronte //Теория и практика современной науки. – 2019. – №. 9 (51). – С. 6-8.
8. .Sadullayev F. B. INNER CHARACTERIZATION OF THE MAIN CHARACTER IN THE NOVEL —THE WINGS OF THE DOVE|| BY HENRY JAMES //Conferencea. – 2022. – C. 132-135.